

UO‘K(UDC, УДК): 82.03:821.512

O‘ZBEK TARJIMASHUNOSLIGI VA TURKIY XALQLAR ADABIYOTI: TARIXIY TAJRIBA HAMDA ZAMONAVIY TAMOYILLAR¹⁶

Jo‘raqulov Uzoq Haydarovich

filologiya fanlari doktori

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik

kafedrasi mudiri, professor

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: juraqulovuzoq@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0009-0004-7506-4372

Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna

filologiya fanlari doktori

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Jahon adabiyoti kafedrasi mudiri,

professor

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: gulnoz7410@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5013-0792

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
Mazkur maqolada o‘zbek badiiy tarjimachiligining bir asrdan ziyod davrni qamrab olgan tarixiy taraqqiyot bosqichlari, nazariy asoslari va amaliy yutuqlari keng ko‘lamda tahlil qilingan. Milliy tarjima maktabining shakllanishini o‘zbek matbuoti, xususan, “Jahon adabiyoti” va “Sharq yulduzi” kabi nashrlarning faoliyati bilan bog‘liq holda yoritib beriladi. Tadqiqotda mustaqillik yillarida tarjimachilik sohasida erishilgan natijalar, ilmiy kengashlar faoliyati va	O‘zbek tarjimashunosligi, badiiy tarjima, turkiy adabiy aloqalar, Chingiz Aytmatov fenomeni, tarjima mahorati, qiyosiy adabiyotshunoslik, mustaqillik davri adabiyoti, turkiy xalqlar

¹⁶ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Jo‘raqulov U., Xalliyeva G. O‘zbek tarjimashunosligi va turkiy xalqlar adabiyoti: tarixiy tajriba hamda zamonaviy tamoyillar.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 253-281.

tarjimashunoslikka doir dissertatsiyalarning ko'payishi sohaning ma'naviy birligi, adabiy naqadar jadallashganini ko'rsatiladi. integratsiya, tarjima nazariyasi.

Maqolaning markaziy qismida turkiy xalqlar adabiyoti turk, ozarbayjon, qozoq va qirg'iz adiblari asarlarining o'zbek tiliga o'girilish jarayonlari tadqiq etilgan. Jaloliddin Rumiyning falsafiy asarlari, Umar Sayfiddinning realizmi, Abay va Muxtor Avezovning ma'naviy merosi, shuningdek, Chingiz Aytmatov ijodining o'zbek kitobxoniga yetkazilishidagi mahorat masalalari maqolada asosiy o'rin egallaydi. Ayniqsa, tarjima orqali xalqlar o'rtasidagi madaniy va ma'naviy integratsiyaning kuchayishi, turkiy qardoshlik rishtalarining badiiy ifodasi ilmiy dalillar bilan ochib berilgan. Muallif o'zbek tarjimashunoslarining jahon adabiyoti durdonalarini milliy tilga moslashdagi yuksak mahoratini alohida e'tirof etadi. Xulosa qilib aytganda, maqola o'zbek tarjima san'atining o'tmishi, buguni va kelajakdagi istiqbollari aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasidagi yangi izlanishlar uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Received: April 30, 2026

Accepted: May 18, 2026

Available online: September 5, 2026

UZBEK TRANSLATION STUDIES AND THE LITERATURE OF TURKIC PEOPLES: HISTORICAL EXPERIENCE AND MODERN PRINCIPLES

Uzoq Haydarovich Jorakulov

Doctor of Philological Sciences

Alisher Navoiy Tashkent State University

of Uzbek Language and Literature

Head of the Department of World Literature and

Comparative Literary Studies, Professor

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: juraqulovuzoq@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0009-0004-7506-4372

Khaliyeva Gulnoz Iskandarovna

Doctor of Philological Sciences

Uzbek State University of World Languages

Head of the Department of World Literature,

Professor

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: gulnoz7410@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5013-0792

ABSTRACT	KEYWORDS
This article provides a comprehensive analysis of the historical development stages, theoretical foundations, and practical achievements of Uzbek literary translation spanning more than a century. The author highlights the formation of the national school of translation in connection with the activities of the Uzbek press, in particular, such publications as “Jahon adabiyoti” and “Sharq yulduzi”. In the study, the results achieved in the field of translation during the years of independence, the activities of scientific councils and the increase in the number of dissertations on translation studies show how much the field has accelerated. The central part of the article examines the processes of translating works by Turkic literature – Turkish, Azerbaijani, Kazakh, and Kyrgyz writers into the Uzbek language. The article focuses on the	Uzbek translation studies, literary translation, Turkic literary relations, the Chingiz Aitmatov phenomenon, translation skills, comparative literature, literature of the independence period, spiritual unity of Turkic peoples, literary integration, translation theory.

philosophical works of Jalaluddin Rumi, the realism of Umar Sayfiddin, the spiritual heritage of Abai and Mukhtar Auezov, as well as the mastery of conveying the work of Chingiz Aitmatov to the Uzbek reader. In particular, the strengthening of cultural and spiritual integration between peoples through translation, the artistic expression of Turkic brotherhood ties are revealed with scientific evidence. The author specifically acknowledges the high skill of Uzbek translators in adapting masterpieces of world literature to the national language. In conclusion, the article is of great importance in determining the past, present and future prospects of Uzbek translation art and serves as a theoretical source for new research in the field of comparative literature.

УЗБЕКСКОЕ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ И ЛИТЕРАТУРА ТЮРКСКИХ НАРОДОВ: ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ

Джуракулов Узок Хайдарович

*Доктор филологических наук, профессор,
заведующий кафедрой мировой литературы
и сравнительного литературоведения
Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан*

E-mail: juraqulovuzoq@navoiy-uni.uz

ORCID ID: [0009-0004-7506-4372](https://orcid.org/0009-0004-7506-4372)

Халлиева Гулноз Искандаровна

*Доктор филологических наук, профессор,
заведующая кафедрой мировой литературы
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан*

E-mail: gulnoz7410@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5013-0792

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В данной статье подробно проанализированы этапы исторического развития, теоретические основы и практические достижения узбекского художественного перевода за более чем столетний период. Авторы освещают историю формирования национальной школы перевода в связи с развитием узбекской периодической печати, в частности, таких литературных журналов, как «Мировая литература» и «Звезда Востока». Результаты, достигнутые в области перевода за годы независимости, деятельность научных советов и увеличение количества диссертаций по переводоведению показывают, насколько ускорилось развитие этой сферы. В основной части статьи исследованы процессы перевода на узбекский язык произведений литературы тюркских народов – турецких, азербайджанских, казахских и киргизских писателей. Основное место в статье занимают вопросы перевода	Узбекское переводоведение, художественный перевод, тюркские литературные связи, феномен Чингиза Айтматова, переводческое мастерство, сравнительное литературоведение, литература периода независимости, духовное единство тюркских народов, литературная интеграция, теория перевода.

философских произведений Джалалиддина Руми, реализма Умара Сайфиддина, духовного наследия Абая и Мухтара Ауэзова, а также мастерства донесения до узбекского читателя идейно-художественных особенностей творчества Чингиза Айтматова. В частности, научно обосновывается, что посредством перевода может быть достигнуто усиление культурной и духовной интеграции между народами и что благодаря мастерству переводчиков читателю становится доступным художественное выражение братских тюркских уз. Автор особо отмечает высокое мастерство узбекских переводчиков в адаптации национального языка к переводу шедевров мировой литературы. В заключение можно сказать, что статья имеет важное значение для определения прошлого, настоящего и будущих перспектив узбекского искусства перевода и служит теоретическим источником для новых исследований в области сравнительного литературоведения.

KIRISH

O‘zbek zamonaviy tarjimachiligining o‘zi ham tarixan yuz yildan ortiq vaqtni bosib o‘tdi. Bu vaqt mobaynida o‘zbek tarjimachiligi qator yutuqlarga erishda. Dunyoning o‘nlab tillaridan amalga oshirilgan badiiy tarjimalar bilan boyidi. Tarjima amaliyoti nazariya bilan uyg‘unlashdi. Milliy o‘zbek tarjimashunosligining ilmiy asoslari ishlab chiqildi. Amaliy mezonlari tarjima jarayonlariga tatbiq etildi. Maxsus tarjimashunoslik shifri asosida alohida ilmiy kengashlar ish olib boradi. Bu kengashlarda o‘nlab, hatto yuzlab tarjimashunoslikka doir nomzodlik (PhD), doktorlik (DSc) dissertatsiyalari himoya qilinyapti. O‘zbek matbuoti sahifalarida, ayniqsa, “Jahon adabiyoti”, “Tafakkur”, “Sharq yulduzi”, “Yoshlik” jurnallari, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Hurriyat”, “Kitob dunyosi” gazetalari, “Sharq”, “O‘qituvchi”, “Cho‘lpon”, “O‘zbekiston”, “G‘afur G‘ulom” kabi davlat nashriyotlari, “Adib”, “Ziyo-nashr”, “Mumtoz so‘z”, “Akademnashr” singari qator xususiy nashriyotlarda yuzlab tarjima asarlari chop etilmoqda. 2019 ili “Ziyo-nashr” xususiy nashriyoti o‘rta maktablar uchun “Jahon adabiyoti yuz tomliqi”ni nashr etdi. Lotin grafikasida har biri 5000 nusxadan chop etilgan ushbu kitoblar O‘zbekistondagi maktablarning adabiyot o‘qituvchilariga qo‘shimcha xrestomatiya vazifasini bajarmorqda. Eng muhimi, tarjima asarlarining 30-40 % i yer sharining turli burchaklarida istiqomat qilayotgan turkiy xalqlar adabiyotiga tegishli. Shularga asosan, tadqiqotning bu qismini quyidagi tasnif asosida davom ettirishni ma’qul ko‘rdik:

1. Turkiy xalqlar adabiyotidan tarjimalar.
2. Rus adabiyotidan tarjimalar.
3. Boshqa xorij adabiyotlaridan tarjimalar.

Albatta, mustaqillik davri o‘zbek tarjimonlari amalga oshirgan barcha tarjimalarni bir kichik tadqiqot doirasiga sig‘dirish mumkin emas. Ularning ko‘lami, tarjimasi bilan bog‘liq masalalar, badiiyati tahlili har bir tarjimaga alohida yondashuv zaruratini talab etadi. Shu nuqtayi nazarda mazkur tadqiqotda umumiy tasnif asosidagi umumlashtiruvchi tavsif va tahlillar bilan cheklanishga majburmiz.

a) turkiy xalqlar adabiyotidan tarjimalar.

XX asr boshlarida jadidlar tomonidan eng ko‘p murojaat qilingan turkiy adabiyot namunalari usmonli turklari ijodiga oid. Ammo ularning aksariyati klassik adiblar asarlari, shuningdek, ilmiy adabiyotlardan iborat bo‘lgan. Agar turk adabiyotida Jaloliddin Rumiy, Yunus Emrolar tarjima etilgan bo‘lsa, Ozarbayjon adabiyotidan Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Nasimiylar, Turkman adabiyotidan Maxtumquli, Mulla G‘oyib, Mulla Nafas asarlariga ko‘p murojaat qilingani kuzatiladi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, sovet davrida ko‘proq qardosh turkiy millatlar adabiyotidan tarjima qilish urfga kirdi, urfga kirdigina emas, sovet adabiy siyosatiga xos maxsus grafik asosida tizimli tardjimalar amalga oshirildi. Tarjima qilinganda ham inqilob, kommunistlar, kolxozlashtirish, ulkan qurilishlar, yangi yerlar ochish bilan bog‘liq sotsrealizm yo‘lida yozilgan ijtimoiy dolzarb mavzularga ko‘proq urg‘u berildi. Birinchi jahon urushi davrida esa nainki sobiq ittifoq tarkibidagi turkiy millatlar, ayni paytda, mavjud 22 ta respublikada yashaydigan o‘nlab boshqa millat vakillari adabiyoti yagona mavzu atrofida birlashdi. Falokat, fojia, dard birligi ko‘pmillatli SSSR xalqlarini darhaqiqat yagona adabiy mavzu atrofida jipslashtirdi. Bunday jipslashuv jarayonida adabiyot bir qanotni tashkil etgan bo‘lsa, badiiy tarjima ikkinchi qanot vazifasini bajardi. “Ottepl” davri ittifoq tarkibidagi barcha xalqlar uchun ulkan badiiy imkoniyatning maydonga kelishini ta‘minladi. Tom ma‘nodagi katta adabiyot namunalarini yozish uchun qisqa muddatga bo‘lsada yo‘l ochildi. Jahon adabiyoti, milliy adabiyotlar tarixi, folklor bilan XX asr adabiyotining sintezlashuvi, konseptual bog‘lanishi ko‘zga tashlandi. Bu jihat nainki ittifoq adabiyotining avangardi maqomida yashagan rus adabiyoti, balki ittifoq tarkibidagi barcha milliy adabiyotlar, xususan, turkiy adabiyotlar faoliyatida ham yorqin sahifalar ochdi. Agar o‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, G‘afur g‘ulom, Oybeklardan keyin Odil Yoqubov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O‘tkir Hoshimov, Omon Matjonlar kirib kelgan bo‘lsa, qozoq adabiyotida O‘ljas Sulaymon, Qirg‘iz adabiyotida Chingiz Aytmatovlar fenomeni paydo bo‘ldi. Mana shunday bir nafaslik uyg‘onish adabiyot uchun ko‘p narsa berdi. Yangi mavzular, janrlar, obrazlar, uslublarning tug‘ilishi uchun zamin

hozirladi. Ulkan miqyosda uygʻongan adabiy jarayonni birlashtirib turuvchi kuch esa, bu davrda, albatta tarjima va tarjimonlar faoliyati boʻldi.

70-yillardan 80-yillarning ikkinchi yarmigacha davom etgan turgʻunlik davrida esa na adabiyot, na badiiy tarjima uchun keng maydon, poetik imkon ochildi. Aksincha, adabiyotning qizillashuvi, sotsializmning zerikarli kanonlari adabiyot rivojini toʻsishga xizmat qildi. Faqat 80-yillarning oʻrtalaridan boshlangan uygʻonish, oshkoralik, demokratiya, qayta qurish harakatlari dunyodagi barcha turkiy xalqlar madaniyati, maʼnaviy dunyosi hamda adabiyotining chinakam maʼnoda birlashuvi uchun zamin hozirladi. Ittifoq tarkibidagi turkiy xalqlarning mustaqillik, yaʼni suverenitetga erishuvi tarjimachilik sohasida ham keskin burilishni taʼminladi, tarix, siyosat, madaniyat va adabiyotga doir asarlar tarjimasi keng koʻlam oldi. Badiiy asarlarning yetmish yillab taʼqiqlab kelingan namunalari tarjimalari amalga oshirildi. Turkiy xalqlar adabiyoti tarjima vositasida umumlashdi. Bunday umumlashuvda oʻzbek tarjimashunosligi, tarjimachilik maktabi muhim madaniy uzv vazifasini oʻtadi.

Turkiy xalqlar adabiyotining jahon adabiyotining ajralmas bir qismi ekaniga shak-shubha yoʻq. Turkiy xalqlar adabiyoti qadimgi tarixiga koʻra yagona manbaga borib bogʻlanadi. Bu jihat folklori va ilk yozma adabiyot manbalarida yaqqol koʻrinadi. Turkiy xalqlar adabiyoti deyilganda turk, ozarbayjon, qozoq, qirgʻiz, turkman kabi millatlar adabiyoti tushuniladi. Agar «Manas», «Alpomish», “Goʻroʻgʻli”, “Qoʻrqut ota kitobi” kabi eposlar umumturk folklori namunalari boʻlsa, Mahmud Koshgʻariy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrablar ijodiga parallel ravishda Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Nasimiy, Maxtumdul, Mulla Gʻoyib, Abay, Muxtor Avezov, Chingiz Aytmatov singari turkiy adiblar ijod qilganlar.

Umumturk adabiyotining eng qadim namunalari Kultigin, Tunyuquq, Bilga hoqonga doir toshbitiklar boʻlsa, bular dunyodagi barcha turkiy xalqlar adabiyoti uchun asos vazifasini oʻtaydi. Turk adabiyotidagi «Qoʻrqut ota kitobi» ham aynan toshbitiklarning real taʼsiri ostida dunyoga kelgan. Oʻzbek tiliga qator tarjimalari amalga oshirilgan turk hikoyachiligining shakllanishida ham adabiy anʼanalar taʼsiri

kuzatiladi. Sharq xalqlari ogʻzaki ijodining noyob durdonasi “Ming bir kecha”, turk xalq epik ijodi namunalari “Karam bilan Asli”, “Kitobi Dada Qoʻrqut” dostonlari turk zamonaviy hikoyachiligiga katta taʼsir oʻtkazgan. Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”si, Shayx Gʻolibning “Husn-i ishq”, Ohiyning “Husn-i dil”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho” singari mumtoz sharq dostonlari XX asr turk hikoyasining vujudga kelishida muhim manba boʻlib xizmat qilgan. Turk realistik hikoyachiligining maydonga kelishi: birinchidan, xalq nasriy ijodi anʼanalari, ikkinchidan, yozma adabiyotga xos poetik tamoyillar, uchinchidan, fransuz va jahon hikoyachiligi tajribalari va, nihoyat, toʻrtinchidan, hayot voqeligidagi keskin oʻzgarishlar bilan bogʻliqdir. Turk “xalq hikoyalari” ustida ilk jiddiy tadqiqot olib borgan mashhur olim Fuad Koʻprulu ularni quyidagicha tasniflaydi: “1. Turkiy anʼanalar taʼsiridagi mavzular: “Dada Qoʻrqut”, “Goʻroʻgʻli” dostonlari. 2. Islom anʼanasidan oʻtgan diniy mavzular: “Mavlud”, “Hazrati Hamzaning qahramonliklari”, “Abo Muslim Xurosoniy qissalari”, “Halloji Mansur”, “Shayx Sanʼon” singari nasriy va nazmiy kitoblar. 3. Eron anʼanasidan oʻtgan - aksariyati diniy boʻlmagan, baʼzan zohiriy, islomiy maʼno berilgan mavzular va fors nasri anʼanalari tarkibida oʻtgan hind mavzulari: “Kalila va Dimna”, “Shohnoma” (Köprülü M.F., 1986, 366-371). Adabiyotshunos Ali Berat Alptekin tasnifi bir oz oʻzgacharoq xarakterga ega. Uning tasnifida makon xususiyatlari bilan bir qatorda Sharq nasriga xos mavzu xususiyatlari ham eʼtiborga olingan: “a) turkiy manbalardan yetib kelgan xalq hikoyalari: “Goʻroʻgʻli”, “Oshiq Gʻarib” va h. k; b) arab, fors va hind manbalaridan yetib kelgan xalq hikoyalari: “Laylo va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Yusuf va Zulayho”; v) ertak-afsona manbalari asosida yaratilgan xalq hikoyalari: “Kirmonshoh”, “Tapdigʻ”, “Latifshoh”, “Shoh Ismoil”; g) oshiqlar hayotidan taʼsirlangan xalq hikoyalari: “Karam bilan Asli”, “Tufarganli oshiq Abbos va Gulgez pari”, “Gurbaniy va pari”, “Yerjishli Emrah va Selvixon” va h. k.” (Alptekin Ali Berat., 1997, 42). Ismoil Kasapning “Xalq hikoyalari haqida” maqolasida shunday tasnifga duch kelamiz: “a) hayotda boʻlib oʻtgan voqealar; b) oshiqlar boshidan kechirganlarini rivoyat qiluvchi tarjimayi hollar; v) Abo Muslim, Battol Gʻozi singari diniy rivoyatlar; g) mavzulari mumtoz sheʼriy hikoyalardan,

arab, hind va fors she'riy to'plamlaridan olingan hikoyalar (Kasap I., 2000, 127). Ahmad Mithat, Emin Nihat, Sami Poshozoda Sezai, Nobizoda Nozim, Rejaizoda Mahmud Ekrem asarlarini shunday hikoyalar qatoriga kiritish mumkin. Holid Ziyo realizm asarlarida real hayotiy voqealari, Istanbul xalqining ijtimoiy turmush tarzini qalamga oldi. Ushbu yangicha tamoyillar Husayn Rahmi, Rafiq Xolid, Umar Sayfiddin, Yoqub Qodri, Aka Gunduz, Mamduh Shavkat kabi yozuvchilar ijodida ham ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Umar Sayfiddining noyob iste'dodi bilan mushtarak holatda yuksak badiiyat hodisasi sifatida namoyon bo'lgan. Ba'zi asarlarida u xudbin, zolim, boylikka o'ch, xulqi yomon, irodasiz kishilar obrazini hajviy bo'yoqlarda tasvirlaydi. "Haram" (1918), "Baland poshnalar" (1922), "Aslzodalar" (1938), "Yashirin ibodatxona" (1923), "Oq lola" (1938), "Ilk oq tola" (1938), "To'lqin" (1943), "Nuqta" (1956), "Tarix azaliy takrorlanishdir" (1958) kabi hikoya to'plamlari bunday salmoqli xulosa chiqarishimizga to'la asos beradi. Jumhuriyat davri hikoyanavislarining ilk hikoya to'plamlari 1929-yilda chop etilgan (Sami N., 1975, 286). Undan oldinroq Jumhuriyat yozuvchilari asarlari vaqtli matbuot sahifalarida ko'rinib turgan, xolos. Faxri Jaloliddin Go'ktulga, Salohiddin Enis, Mamduh Shavkat Esendal, Kenan Hulusi Qo'roy, Nahit Sirri O'rik, Sadri Ertem, Sabohaddin Ali, Bekir Sitki Kunt, Mahmud Yesari, Ahmad Nayim, Usmon Jamol Kaygili va Said Foiq hikoyalari bu davr hikoyachiligining yetakchi konsepsiyalarini o'zida aks ettiradi.

Usmonli turk adabiyotidan Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asari bir yo'la ikki o'zbek tarjimoni tomonidan o'girildi. Dastlab asarni so'fiytabiat shoir, olim va tarjimon Asqar Mahkam tarjima qildi. Ammo o'z tarjimasini oxiriga yetkaza olmadi. Shundan so'ng "Masnaviy" tarjimasiga O'zbekiston xalq shoiri, filologiya fanlari nomzodi va tarjimon Jamol Kamol qo'l urdi. Nihoyat asarni aruz yo'lida to'la tarjima qilishga erishdi. 2005-yilda asarning to'liq tarjima varianti nashr etildi. Jaloliddin Rumiyning "Ichindagi ichindadir" falsafiy-ma'rifiy asari Turkiyada ilm tahsilini qilib qaytgan, yozuvchi, shoir, filologiya fanlari doktori Ulug'bek Hamdam tomonidan o'zbekchalashtirildi. Asar 2004-yilda ilk bor nashr etildi. Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi" romani ham o'zbek kitobxonlari

orasida mashhur. Asar 2002-yili kitob holida chop qilingan. Bundan tashqari Ahmad Lutfi Qozonchining “Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hayotlariga bag‘ishlangan tarixiy-biografik romani “Oydinliklar sari” o‘zbek kitobxonlariga to‘rt jildan iborat qilib taqdim etilgan. Asar yozuvchi Nurullo Otaxon va boshqalar tomonidan o‘g‘irilgan. Asar bir necha bor tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etildi. Bundan tashqari yosh tarjimonlar tomonidan qator turk hikoyalari, romanlari o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan. Ayniqsa, Poshsha Kenjayeva tomonidan o‘g‘irilib, nashrga tayyorlangan “Kutilmagan mehmon” to‘plamida turk modern va postmodern nasri namunalari jamlangan. Bunda tarjima jarayonlarida eng qadimiysi – bu, Nozim Hikmat asarlari tarjimasidir. Uning “Inson manzaralari” asari hali 1982-yildayoq tarjima qilinib, o‘quvchilar ko‘nglidan chuqur joy olganini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir.

Tunjer Juken o‘g‘li (1944)ning “Brut yoxud Yuliy Sezarning qotili” tragikomediyasi Oybek Veysal o‘g‘li tomonidan o‘zbekchaga o‘g‘irildi (Jahon adabiyoti jurnali, 2019, 5-son.).i 2018-yili Oshiq Veysal (1894-1973)ning “Men ketarman”, Ahmad Qudsiy Tajar (1901-1984)ning “Qaydasan”, Ahmad Hamdiy Tarpinar (1901-1962)ning “Moviy” she’rlari o‘zbekning hassos shoiri Yo‘ldosh Eshbek tomonidan o‘zbekchalashtirilgan (Jahon adabiyoti jurnali, 2018, 11-son.). 2019-yilda zamonaviy turk she’riyatidan qator tarjimalar amalga oshirildi. Jumladan, Mexmet Nuri Parmaksiz (1974)ning “Tashqarining xayoli”; Jo‘shqin Qorabulut (1956)ning “Qo‘lim bir ahvolda”, “O‘yinlar”, “Vaqt”, “Yolg‘izlik”, “Ket!”, “Ishonch”; Ilter Yashiloy (1976)ning “Ichimdagi ovoz”, “Qayg‘u yomg‘iri”; Malohat O‘zhabonning “Vaqtimiz bor ekan”; Sunay Akin (1962)ning “Ayriliq”, “Bexabarlik” she’rlari o‘zbek shoirasi Xosiyat Rustamova tomonidan mahorat bilan o‘g‘irilgan. Ushbu she’rlardagi zamonaviy turk yigiti yoki qizining botiniy evrilishlari, sevgisi, iztirobi, global dunyoga ichki munosabati tarjimada yorqin aks etgan (Jahon adabiyoti jurnali, 2019, 5-son).

Ozarboyjon adabiyoti namunalari hisoblangan “Go‘ro‘g‘li”, “Oshiq G‘arib” dostonlari, Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”i, Fuzuliy devon va dostonlari ham umumturk adabiy shajarasi bilan bevosita bog‘lanishga ega. Bunda ko‘proq o‘zbek adabiyoti va usmonli turk adabiyoti an‘analari, adabiy ta’siri va adabiy aloqalari

muhimligi seziladi. 2019-yilda zamonaviy Ozarbayjon she'riyatidan Rasul Rizo (1910-1981)ning "Ranglar" turkumidan "Oq rang", "Oq rangning sevinch tusi", "Bo'zrang", "Moviy", "Qora" she'rlari; Fikrat Sodiq (1930)ning "Umid mendan yuz o'g'irsa"; Yusuf Hasanbek (1932)ning "Dengizga bir yurak ber", "Ayri tushmasin"; Abbos Abdulla (1940)ning "Chiqdi qishlog'imdan shoir bir o'g'lon", "Dunyoning mensiz shaharlari"; Hidoyat (1944)ning "Ba'zan kuz bo'lasan ba'zida bahor", "Esadi sarsari kuzak yellari"; Sulton Merzili (1948)ning "Yashatar meni", "Bir hovuch tuproq"; Voqif Jabroyilzoda (1949)ning "Tog'larning u tomonida"; Fikrat Mursaqulov (1955-1989)ning "Tasalli", "Taralgan kuylarning bir qo'li kesik"; Ayozi Arabachi (1967)ning "Kuz oqshomida" singari she'rlari o'zbek tiliga mahorat bilan o'girilgan. Tarjimon shoir Usmon Qo'chqor (Jahon adabiyoti jurnali, 2019, 6-son). Ayni paytda Ozarbayjonlik xalq yozuvchisi Anorning "Albatta, uchrashamiz" hikoyasi Mamatqul Hazratqulov tomonidan o'zbekchaga tarjima qilindi (Jahon adabiyoti, 2019, 6-son). Nusrat Karimning "Turkiston bilan muloqot" dostoni o'zbekchalashtirilgan (Jahon adabiyoti, 2019, 5-son). Yo'lyosofning "Olachipor ajal" romani Sh.Mansurov, Hakim Axyorning "Karvon" asari A.Hojiahmedov, O.Madayevlar, Ch.Abdullayevning "Borsa kelmasdan qaytganlar" asari B.Rizo, Anorning "Besh qavatli uyning oltinchi qavati" asari U.Qo'chqor, Husan Nihol Otsizning "Ko'k bo'rilarning tirilishi" Tohir Qahhor, Yusuf Vazirning "Ikki o't orasida", "Qizlar bulog'i" F.Shohismoil, Yavuz Bahduro'g'lining "Alvido Xorazm" asarlari B.Muhammadshariflar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Qozoq adabiyoti avvalo qozoq folklori namunalari: "Алпамыс" eposi, qozoq xalq ertaklari, Aldarko'sa haqidagi hikoyat va latifalari bilan umumturk adabiy-estetik zaxirasining bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Qozoq yozma adabiyoti esa Abay ijodi bilan boshlanadi. Uning "Iskandar", "Mas'ud" dostonlari, xalq yo'lida yozilgan qator she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. XX asr qozoq adabiyoti Mag'jon Jumaboy ijodi bilan boshlanadi. Yangi qozoq adabiyoti sahnasini, ayniqsa, Muxtor Avezov ijodi bezab turadi. Yozuvchining "Abay", "Abay yo'li" roman-epopeyasi nafaqat o'zbek, turk, tatar, turkman kabi turkiy tillarga, hatto ingliz, fransuz, nemis singari Yevropa, xitoy yapon, koreys singari xorijiy

tillarga ham tarjima qilingan. M.Avezovdan keyin qozoq adabiyotida Sobit Muqonov, Gʻabit Musrepov asarlari yetakchi mavqe egallaydi. Ayniqsa, keyinchalik adabiyot maydonini egallagan Anvar Olimjonovning “Oʻtror tangasi”, “Mahambet nayzasi” asarlari, Oʻljas Sulaymon sheʼriyati, ilmiy-estetik ijodi, Abduljalil Nurpeisovning “Qon va ter” trilogiyasi qozoq adabiyoti rivojiga katta hissa boʻlib qoʻshilganini alohida taʼkidlamoq kerak. Hali XX asrning 60-yillaridayoq “Qozoq hikoyalari” degan toʻplam oʻzbek tilida nashr etilgan. Ayni toʻplamga ellikka yaqin qozoq hikoyalari tarjima etilib, jamlangan. Toʻplam tarkibidan S.Seyfullinning “Yupatuv”, “Oʻmar” (S.Xudoyberganov tarjimalari), B.Maylinning “Halol mehnat” (Gʻ.Moʻminov tarjimasi), “Kolxoz qoʻrasida” (Yu.Abdullayev tarjimasi), M.Avezovning “Oʻqimishli yigit” (N.Fozilov tarjimasi), “Burgutchi” (A.Mullamuhammedov tarjimasi), S.Muqonovning “Shum zamon”. “Bevalik azobi”, “Oltin vodi” (S.Xudoyberganov tarjimalari), “Azamat qadamlar” (S.Ahmad tarjimasi), Gʻ Musrepovning “Halqa tumshuq”, “Mushtipar ona”, “Avtobiografik hikoya” (N.Fozilov tarjimalari) kabi asrlari tarjimaslari joy olgan. Ushbu asarlar professional tarjimonlar, yozuvchilar tomonidan mahorat bilan tarjima qilingan. Ayni paytda “Qozoq hikoyalari” toʻplamini Gʻ.Mustafin, A.Alimjonov, O.Boytonoyev, T.Jarmagʻambetov, J.Jumaqonov, S.Junusov, J.Ismogʻulov, Q.Isaboyev, J.Moʻldagʻaliyev, B.Moʻmish oʻgʻli, A.Sersenbayev, S.Oʻmarov, Q.Quttibayev, S.Bayazitov, S.Begalin, N.Gʻabdullin kabi qator qozoq yozuvchilari asarlari bezab turibdi. Shuningdek, Esongʻali Ravshanovning “Oʻshanda koʻklam edi” qissasi Mehmon Islomqul oʻgʻli tomonidan 2019-yilda tarjima qilindi (Jahon adabiyoti jurnali, 2019, 3-son). Seyin Muratbekovning “Ultugʻan” hikoyasi (Nazira Joʻrayeva tarjimasi), Dulat Isabekovning “Bonapartning uylanishi” dramasi (Muhammad Xayrullayev tarjimasi) oʻzbekchalashtirilgan (Jahon adabiyoti jurnali, 2013, 10-son).

Qirgʻiz adabiyoti deyilganda uning ibtidosi oʻlaroq “Manas” eposi tushuniladi. Bu buyuk asar oʻzbekning buyuk shoiri, madaniyat va sanʼat arbobi, yetuk tarjimoni Mirtemir tomonidan oʻzbek tiliga oʻgirilgan. Shuningdek, qirgʻiz xalq folklori, ertak, hikoyat, qissa va latifalari ham oʻzbek adabiyoti uchun begona

emas. O‘zbek folklorshunoslari tomonidan tadqiq etilishi bilan birga turkiy xalqlar folklori tarjimalari tarkibiga kiritilib, o‘zbek kitobxonlariga ham tanishtirilgan. XX asr qirg‘iz adabiyoti deyilganda, birinchi navbatda Chingiz Aytmatov ijodi tushuniladi. 1928-yil 12-dekabrda Qirg‘iziston Talas vodiysining Auvliyo ota shahriga yondosh Shakar ovulida tug‘ilgan, To‘raqul Aytmat o‘g‘li va Naima Hamza qizlarining farzandi Chingiz oiladanoq o‘z turkiy urug‘i, ota bobolari, ona ajdodlarini bilish, xotirda saqlash bobida tarbiyalangan bir umumturk yozuvchisidir. Shuning uchun Ch.Aytmatov asarlarida turkiylik, ajdodlar an‘anasi, buyuk o‘tmish, shonsiz bugun, pajmurda kelajak haqidagi g‘oyalar asosiy o‘rin tutadi. XX asr turkiy adiblari ichida eng mashhuri, eng ko‘p tarqalgani, jahon tillariga tarjima etilgani Chingiz Aytmatovdir. Uning dunyo bo‘yicha tarjima qilinib, tarqatilgan asarlari adadi bugungi kunda yuz milliondan oshib ketgan. O‘zbek tiliga ham barcha turkiy ijodkorlar ichida eng ko‘p tarjima qilingan adib Chingiz Aytmatovdir. Yozuvchining “Jamila”, “Momo yer”, “Alvido, Gulsari!”, “Oq kema”, “Sohil bo‘ylab chopayotgan olapar” qissalari bilan o‘zbek kitobxoni 60-70-yillardan beri tanish bo‘lsa, “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Kassandra tamg‘asi”, “Tog‘lar ham qulaydi” romanlari 90-yillardan boshlab bugungi kungacha tarjima qilib kelinyapti. 2016-yilda “Sharq” nashriyoti Chingiz Aytmatovning qissalar to‘plamini nashr etdi. To‘plamning ahamiyati shundaki, 60-yillardan beri izchil tarjima qilib kelinayotgan Chingiz Aytmatov qissalari ilk bor o‘zbek kitobxoni uchun bir jild ichida jamlandi. Bu esa, o‘z navbatida o‘zbek o‘quvchisida Chingiz Aytmatov qissalari xususida to‘la tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Kitob A-4 formatda nashr etilgan bo‘lib, undan yozuvchining o‘nta qissasi joy olgan. Bular: “Yuzma-yuz”, “Jamila”, “Sarvqomat dilbarim”, “Birinchi muallim”, “Somon yo‘li”, “Bo‘tako‘z”, “Alvido, Gulsari”, “Oq kema”, “Erta qaytgan turnalar”, “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissalari tarjimasidan iborat. Yozuvchi 1988-yilda “Yuzma-yuz” qissasining qayta ishlangan, o‘zgartirilgan (30 sahifa qo‘shilgan) nashriga bitilmish so‘zboshisida shunday muhim fikrlarni aytadi: “O‘z ijodiy tajribamda ilk bor ancha ilgari nashr etilgan asaringa qaytmoqchiman. “Yuzma-yuz” qissasi o‘ttiz yillar muqaddam yozilgandi. Sirasini aytganda, ushbu chog‘roqqina asar bilan mening ijodiy yo‘lim

boshlangan. Agar u hozirgi kitobxon uchun aziz bo'lgan qandaydir ma'no-mazmunni o'zida saqlagan bo'lsa, fikrimcha, bu eng avvalo shuni ko'rsatadiki, bu asar yuragim tubidan sizib chiqqan ekan. Men unga o'sha paytda anglab yetgan hayotiy tajribamni joylashga urindim, zero, mening o'spirinlik va yoshlik chog'larim urush va undan keyingi ilk yillarga to'g'ri kelgandi. O'n to'rt yoshimda ovul sovetiga kotiblik qildim, so'ng soliq yig'uvchi bo'ldim. Bularning hammasi katta sinov tariqasida menda, mening murg'ak ruhiyatimdan sizib o'tdi. Men odamlarni o'sha urush va urushdan keyingi yillardagi og'ir vaziyatlarda kuzatdim va o'zim ham chekinga tushgan nasibamni totdim...

Darvoqe mening qahramonlarim tushgan hayotiy kolliziya, keyinchalik, anig'i, salkam o'n ikki yildan so'ng Valentin Rasputinning "Omon bo'lsang unutm" qissasida o'z tasvirini, hatto, menimcha, yanada yorqinroq tasvirini topdi" (Aytmatov Ch., 2016, 22-23). Darhaqiqat, 60-80-yillar o'zbek kitobxoni asarning birinchi, nisbatan sovetcha variantini ham o'qigan. Bu avlod Ch.Aytmatovning "Yuzma-yuz" qissasi deganda asosan shu variantni tushunadi. Sovet o'quvchisi o'laroq asardagi qizil ruhdan ta'sirlanadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, Ch.Aytmatov oradan o'ttiz yil o'tib qayta ishlashga jazm qilgan bu asarda ilk variantidayoq insoniy ruh, botin dardi borligi aniq. Yozuvchi ushbu "So'zboshi"sida bu masalaga tortinib, uyalgandek munosabatda bo'lgani, shu nuqtayi nazardan, uning individual xarakteri, xarakteriga xos ichki hayodan dalolat beradi. Ch.Aytmatovning "Yuzma-yuz" va boshqa barcha qissalarini o'zbek tarjimoni Asil Rashidov o'g'irgan. Shu ma'noda u Ch.Aytmatov qissalarining sir-sinoati, kuchli va ojiz tomonlarini mukammal biladigan noyob professional desak, yanglishmagan bo'lamiz. Bu jihat har bir qissa tarjimasida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. "Shamol uchirib kelgan yaproqlar kichkinagina stansiyaning kechasi miltillab ko'ringan yolg'iz fonusiga urilib, parvonadek aylanardi-da, qorong'uda ko'zdan g'oyib bo'lishardi". "Yuzma-yuz" qissasidan. Birinchi jumla (Aytmatov Ch., 2016, 23); "Har gal safarga chiqish oldidan kichkina yog'och ramkaga solingan surat oldida turish menga odat bo'lib qolgandi. Ertaga ovulga jo'nashim kerak. Mana, hozir ham o'sha suratga tikilib, go'yo undanoq yo'l tilayotgandek ko'zimni uzolmay, uzoq termilib qoldim".

“Jamila” qissasidan birinchi abzas (Aytmatov Ch., 2016, 76); “Men Boytemirdan eshitganlarimni Ilyosga soʻzlab bermadim. Axir bu odamlarning koʻrkamligi va qadr-qimmatini ham ularning bir-biri haqida hech narsa bilmasdan turib, bir-biriga shu qadar oliyjanoblik qilishida, insoniy munosabatda boʻlishida emasmi! Shunday ekan, bu gaplarni unga soʻzlab nima ham qilardim...” “Sarvqomat dilbarim” qissasidan soʻnggi abzas (Aytmatov Ch., 2016, 194); “Keyin Duyshen koʻz yoshlarini artayotib, dedi – Men bugun volostga joʻnab ketyapman, bolalar. Partiyaga oʻtmoqchiman. Uch kundan keyin qaytib kelaman...” “Birinchi muallim” qissasidan dialogik nutq namunasi (Aytmatov Ch., 2016, 214) “Qani endi oʻsha dilbar qiz hozir yonimda boʻlsa-yu, bu yovvoyi yovshanzor dasht ajoyib Anorxoy oʻlkasiga aylanajagini hikoya qilib bersam” “Boʻtakoʻz” qissasidan (Aytmatov Ch., 2016, 324); “Eski aravani keksa bir kishi haydab borardi. Saman yoʻrgʻa – Gulsari ham juda qari edi...” “Alvido, Gulsari” qissasidan birinchi abzas (Aytmatov Ch., 2016, 326) “...Shunday kechalardan yana biri oʻtdi... Dengiz uzra Oʻrxon shamoli shovqin solar, dengizda aki-Milxun toʻlqinlari suzib yurar va yorishib kelayotgan osmoni falakning bir chetida Emraynning nurli yulduzi charaqlab turardi...Yana yangi bir kun boshlanmoqda edi...” “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasidan xotima qismi (Aytmatov Ch., 2016, 654). Koʻrinyaptiki, Ch.Aytmatov qissalarining oʻgirmasi xuddi asarlar oʻzbek tilida yozilgandek tasavvur beradi. Asarlar tarjimalari tilida milliy ruh, oʻziga xos ifoda yoʻsini, xalq jonli soʻzlashuviga doir elementlar yaqqol koʻzga tashlanishi bilan birga asar ichki ruhiyatini ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa, “yalatma izgʻirin” “tun oʻgʻli kun”, “chiyratma qosh”, “mahzun kamalak”, “koʻrkam quyosh”, “alvon durracha” kabi iboralar aytmatovcha poetik tafakkur qirralarini urgʻulashga xizmat qilgan.

Ch.Aytmatovning ikki romani bir paytning oʻzida oʻzbek tiliga oʻgirildi. Oʻzbek kitobxonlariga juda maʼqul boʻldi. Oʻzbek nasri namunalari yonidan oʻziga munosib oʻrin egalladi. Yozuvchining “Asrga tatigulik kun” romani Asil Rashidov, “Qiyomat” romani esa Ibrohim Gʻafurov tmonidan oʻzbek tiliga oʻgirilgan. “Qiyomat” romanining oʻzbekcha tarjimasi chop etilish munosabati bilan “Sharq yulduzi” jurnalxonlariga yozgan dastxatida muallif: “Agar Siz kitobxonlar qalbida

va ong-shuurida mening asarim yangi tuyg‘u, yangi kechinmalar, yangi o‘y-fikrlar uyg‘ota olsa, men mamnun bo‘lardim”, deydi. Bu bilan Chingiz og‘a o‘z asarining o‘zga lisoniy libosda, o‘zbek tiliga yangicha talqin etilishiga umid bog‘laydi. Zero, asliyat bilan uning boshqa tillarga qilingan tarjimalari bir-biriga mutlaq teng bo‘lolmaydi... Ibrohim G‘afurov F.M.Dostoyevskiy, Ernest Xemenguey, Gi de Mopassan, Nozim Hikmat, Uilyam Folkner singari jahon va rus klassik adabiyotining zabardast namoyandalari yaratgan asarlarni o‘zbek tiliga o‘rinlatib tarjima qilgan, lekin o‘zining butun tajribasi va iqtidorini qanchalik safarbar etmasin, Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romani tarjimasiga kelganda ojiz bo‘lib qoldi. U asarni bir necha marta mutolaa qildi, ayrim boblarni, “chiqmayotgan” boblarni ovoz chiqarib o‘qidi, izlandi, iztirob chekdi... Buning sababi, “Qiyomat” – “odatiy” asarlardan emas, muallifning o‘z ijodida ham misli ko‘rilmagan bir yangilik edi”, deb yozadi asar tarjimasi haqida yirik tarjimashunos G‘aybullas Salomov (Aytmatov Ch., 1989, 556-557).

Ko‘rinadiki, Ch.Aytmatov asarlari o‘zbek tiliga tizimli tarzda o‘girib kelingan. Hatto yozuvchining ijodini mukammal darajada o‘zlashtirgan, “o‘z tarjimoni”ga aylangan mutaxassis tarjimonlar ham o‘zbek tarjimachiligida mavjud. Agar tarjimonlar qissalar tarjimasida yuksak lirizm va turkiy xalqlarga xos sokin va jangovar epik lirizmni his etsalar, roman poetik qamrovining kengligi, global miqyosi tarjima jarayonidagi ayrim murakkabliklarni keltirib chiqargan. Ammo shuni ta’kidlash o‘rinliki, o‘zbek kitobxonlari Ch.Aytmatov asarlarini xuddi o‘z yozuvchilari asaridek izchillik va ketma-ketlikda mutolaa qilib keladilar, ayni paytda, undagi umumturkiy ruhiyat, zamonaviy inson va u bilan bog‘liq muammolarni teran his etadilar.

2018-yilda qirg‘iz she’riyatining yetakchi vakillaridan Aliquli O‘smonov (1915-1950)ning “Men yo‘lovchi”, “Armon”, “Tengdoshlarimga”, “Nasiba”, “O‘ttiz yosh”, “Saxovat”, “Yangamga”, “Umringda darz bo‘lsa, she’rdir chechagi” she’rlari Tursunboy Adashboyev va Qurbon Sattorlar tomonidan o‘zbekchalashtirilgan (Jahon adabiyoti jurnali, 2018, 1-son).

Turkman adabiyotidan ham mustaqillik davri o'zbek tarjimashunosligi samarali ishlarni amalga oshirdi. Xususan, xorazmlik tarjimonlar tomonidan "Go'ro'g'li" turkum dostonining bir nechta variantlari o'zbekchalashtirildi. Turkman klassik adabiyotidan Burxoniddin Sivosiy, Ozodiy, Mulla Nafaslar asarlari tarjima qilingan. Ayniqsa, shoir Maxtumduli hayoti va ijodining o'rganilishi, o'zbek kitobxonlariga taqdim etilishi alohida mavzu desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Maxtumduli asarlari 60-yillardan e'tiboran o'zbek tilida jaranglab keladi. Hatto Xorazm vioyatida Maxtumdulini hech qanday tarjimasiz, originalda o'qib tushunadilar. Chunki Maxtumduli Xorazmda, Sherg'ozixon madrasasida ta'lim olib ketgan. Shuning uchun Maxtumdulining dunyoqarashi, u ko'targan lirik-didaktik mavzular, til xususiyatlari o'zbekistondagi o'g'uzlar tili bilan deyarli bir xil. Shunga qaramasdan, Maxtumduli asarlarining o'nlab tarjimalari o'zbek tarjimachiligi javonlarini bezab turadi. Bundan tashqari, XX asr turkman adabiyoti namunalari ham o'zbek tiliga yetarli darajada tarjima qilingan. Xususan, Ko'rmullo, Durdi Qilich, Berdi Kerboboyev, Tovshan Esenova, Qara Seytliyev, Xidir Deryayev, Qilich Quliyev, Ota Otajonov ijodidan qilingan tarjimalar fikrimizga yaqqol dalildir.

2018-yilda uyg'ur mumtoz adabiyotining qator namunalari o'zbekchaga ag'darildi. Xususan, Muhammad Siddiq Zaliliy (17-18-asr), Navbatiy (17-18-asr), Futuhiy (17-18-asr), Xoja Yoqub Arshiy (1685 - 1756), Mahzun (18-asr), Qalandar (18-19-asr), Oxund mulla Mashhuriy (18-asr), Gumnom (18-asr) g'azallarida o'zbek mumtoz she'riyatiga xos xususiyatlar ko'zga yaqqol tashlanadi. Ulardagi vazn, qofiya, radif, rukn, zihof masalalarida Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab an'analariga ergashish seziladi. G'azallardagi obrazlar o'zbek mumtoz she'riyatiga xos gul, bulbul, tun, kun, quyosh, bulut, lab, ko'z, qosh, qoboq, soch, kiprik kabi an'anaviy obrazlardan tashkil topgan. Faqatgina ularda 17-19-asrlarga xoslashgan Xitoydagi uyg'ur milliy tili elementlari bir oz seziladi. Boshqa jihatdan uyg'ur mumtoz she'riyati o'zbek mumtoz lirikasining uzviy davomidek tasavvur beradi. Ushbu g'azallar majmuasi Xiton Shinjong universiteti uyg'ur mumtoz adabiyoti kafedراسi bilan hamkorlikda tayyorlangan. Tarjimon Omonbek Jalilov (Jahon adabiyoti jurnali, 2018, 40-65).

Umuman, o‘zbek tarjimachilik faoliyatining ko‘p va xo‘b qismini turkiy adabiyotdan qilingan ishlar tashkil etadi. Bu yo‘ldagi izlanishlar, amaliy tajribalar, hosil etilgan malaka bugungi kundagi turkiy adabiyot namunalari tarjimasi uchun yetarli ilmiy-adabiy asos bera oladi. O‘zbek o‘quvchisi bunday tarjimalardan teran bahramand bo‘lganidek, bu jihat adabiy aloqalar, qardosh xalqlar do‘stligi, kelajakdagi mustahkam aloqalari uchun salmoqli zamin bo‘lib xizmat qiladi.

b) rus adabiyotidan tarjimalar. O‘zbek tarjimachiligining muhim bir qismini rus tilidan qilingan tarjimalar tashkil etadi. Buning bir nechta sabablari bor. Birinchisi, rus millati bilan ko‘p asrlardan beri davom etib kelayotgan qo‘shnichilik munosabatlari. Ikkinchisi, o‘n to‘qqizinchi asr ikkinchi yarmiga qadar temuriylar, xorazmiylar, ashtarxoniylar sulolalarining rus o‘lkalarini tasarruf etib, qo‘rquvga solib kelgani, u davrdagi ijtimoiy-siyosiy, savdo-madaniy aloqalar. Uchinchisi, o‘n to‘qqizinchi asrdan 1991-yilga qadar davom etgan rus chor va sovet rusi mustamlakasining ichki siyosati, majburiy harakatlari. To‘rtinchisi, darhaqiqat, rus adabiyotining buyuk ijodiy kuch, yuksak talantlarga egaligi. Bular o‘zbek kitobxonini hech qachon e’tiborsiz qoldirmasligi.

Sovet davrida rus adabiyotidan ko‘plab tarjimalar qilingan. Ammo ularning ko‘p qismi ijtimoiy buyurtma asosida amalga oshgan. Ammo 80-yillarning ikkinchi yarmi, ya’ni qayta qurishdan keyin tarjima qilingan rus adabiyoti namunalari o‘zbek xalqi madaniy hayotida muhim burilish yasadi, yangi badiiy sahifalar ochdi desak, adolatdan bo‘ladi. Chunki aynan shu davrlardan e’tiboran o‘zbek o‘quvchisi Pushkin, Lermontov, Turgenev, Gogol, Tolstoy, Dostoyevskiy, Sholoxovlarning chinakam badiiyat bilan yozilgan asarlarini o‘qishga muyassar bo‘ldilar.

Lev Tolstoy “Yoshlik”, “Bolalik”, “O‘smirlik” qissalari Qodir Mirmuhamedov tarjimasida 2020-yilda nashrdan chiqdi (Ziyo-nashr), V.Astafeyevning “G‘amgin sarguzasht” asarining esa Jo‘ra Fozil tomonidan qilingan tarjimasi o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otdi. 2000-yillar boshida O.Sharafiddinov tomonidan o‘girilib chop qilingan V.Voynovichning “Monumental targ‘ibot” romani o‘zining originalligi, til jozibasi, kutilmagan obraz, detal va motivlari bilan o‘zbek xalqining eng sevimli asariga aylanib ulgurdi. Mustaqillik davri o‘zbek

o'quvchisida rus adabiyotining eng yetuk nosiri, mutafakkir-yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiy ijodiga bo'lgan qiziqish yangi bir bosqichga ko'tarildi. Yozuvchining "Jinoyat va Jazo", "Iblislar", "Kambag'allar", "Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar", "Og'a-ini Karamazovlar" romanlari tarjimasini o'zbek madaniy hayoti uchun unutilmas yangilik bo'ldi desak, sira yanglishmaymiz. Hayratlanarlisi shundaki, ayni tarjimalarning barchasi hali sovet davridayoq Dostoyevskiyning ashaddiy muxlisi hamda mohir tarjimoniga aylangan Ibrohim G'afurov qalamiga mansubdir.

v) boshqa xorij adabiyotlaridan tarjimalar.

Mustaqillikka qadar ham o'zbek kitobxonlarida xorij adabiyoti namunalarini o'qishga bo'lgan ehtiyoj juda katta edi. Faqat sobiq sovetlar ittifoqi bu masalada keng planli adabiy siyosat yurgizar, o'zbek kitobxoni ma'naviy ehtiyojidan emas, o'z mafkuraviy siyosati talabidan kelib chiqib tarjimalar "ro'yxati"ni tuzib berar edi. Shu sababdan o'zbek kitobxoni italyan, ingliz, fransuz, ispan, nemis, Amerika, lotin Amerikasi, yapon, xitoy, koreys, arab, hind, eron adabiyotining zamonaviy nashrlari bilan tanishish imkoniga ega emas edi. Mustaqillikdan keyin o'zbek tarjimonlarining katta avlodi yoniga o'rta va kichik avlod vakillari kelib qo'shildi. Tarjima asarlarini tanlash, tasniflash, o'zbekchallashtirish va nashr ettirishning muayyan tizimlari maydonga kela boshladi. Nashriyotlar, vaqtli matbuot nashrlari, adabiy muassasa va tashkilotlar vakillari bu yo'nalishda muayyan ishlarni amalga oshirdilar. Ayniqsa, 1997-yilda "Jahon adabiyoti" jurnalining tashkil etilishi, unga O'zbekiston qahramoni, tanqidchi, pedagog, tarjimon Ozod Sharafiddinovning bosh muharrir etib tayinlanishi o'zbek tarjimachiligining muayyan tizimga, yangi bir bosqichga ko'tarilishiga muhim rol o'ynadi. Natijada qator jahon xalqlari adabiyoti namunalari o'zbek tilida nashr etila boshladi.

Albatta, mustaqillik davrida amalga oshirilgan va nashr etilgan jahon adabiyoti namunalari tarjimalarining barchasini bir nuqtada jamlash, ularning geografik qamrovi, janrlar ko'lami, adadi va hajmini belgilashning o'zi o'ta mushkul ish. Bu tarjimalarning badiiy saviyasi, tarjima asarlar poetikasi: kompozitsiya, syujet, obraz, portret, xarakter, uslub muammolari, adekvatlilik, pragmatika, masalalarini o'rganish va baho berish o'zbek tarjimashunosligidan kamida 40-50-

yil talab qiladi. Bugun hatto badiiy tarjimalarning umumiy ro'yxatini tuzib chiqish ham mumkin emas. Chunki "Jahon adabiyoti", "Tafakkur", "Sharq yulduzi", "Yoshlik", "Ma'naviyat yulduzi", "Bobur va dunyo" kabi jurnallar, "O'zbekiston adabiyoti san'ati", "Ma'rifat", "Hurriyat", "Kitob dunyosi", "Oila davrasida" gazetalarida chop etilayotgan tarjimalarning o'zi ham bir yilda 300-400 tadan oshadi. "O'zbekiston", "Sharq", "G'afur G'ulom", "O'qituvchi", "Cho'lpon" singari davlat nashrlaridan tashqari, "Muharrir", "Akademnashr", "Mumtoz so'z", "Adib", "Yangi asr avlodi", "Tamaddun", "Turon-Iqbol", "Nurafshon-buznes", "Ziyo-nashr" singari o'nlab xususiy nashriyotlarda jahon adabiyotining sara namunalari nashr qilinib kelmoqda. Birgina "Yangi asr avlodi" xususiy nashriyotining ish boshlagandan keyin chop etgan xorijga oid badiiy asarlari soni uch yuzdan oshadi. "Ziyo-nashr" xususiy nashriyoti 2020-yilda "Jahon adabiyoti namunalari yuz tomligi"ni nashrdan chiqardi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkinki, grant asosida hajman chegaralangan o'zbek tarjimachiligi va tarjimashunosligiga doir bir kichik tadqiqotda umumiy sanog'ini mukammal berish ham katta qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun mustaqillik davrida o'zbekchaga ag'darilgan jahon adabiyoti namunalari haqida bayoniy va umumlashtiruvchi tasavvur berishdan o'zga ilojimiz yo'q.

Mustaqillik davri o'zbek tarjimashunosligining salmoqli yutuqlaridan biri ingliz Renessans adabiyotining asoschisi, Yevropa zamonaviy tragediyagrafligi otasi Vilyam Shekspir asarlarining ingliz tilidan tarjima qilinishidir. To'g'ri, Shekspir asarlari sovet davrida ham G'.G'ulom, M.Shayxzoda, A.Muxtorlar tomonidan o'girilgan. Ammo ularning barchasi vositachi rus tili orqali o'girilgan edi. Shoir J.Kamolning xizmati shundaki, V.Shekspirning "Qirol Lir", "Hamlet", "Makbet", "Afinalik Timon", "Romeo va Juletta", "Otello", "Koriolan", "Yuliy Sezar", "Venetsiya savdogari", "Qish ertagi". "Qirol Genrix 4", "Antoniy va Kleopatra" asarlarini original tildan o'girdi. O'zbekiston respublikasi FA "Fan" nashriyoti bu asarlarni uch jildlik "Saylanma" tarzida (2007-2008) nashr etdi. Bu degani o'zbek kitobxoni endigina Shekspir dahosidan bahramandlik tuya boshladi degani emas. Yuqorida nomlari zikr qilingan salaf shoirlar tarjimalari ham, garchi

rus tili vositasida o'girilgan bo'lsa-da, badiiy jihatdan o'ta yuksak edi. Hatto ba'zi o'rinlarda rus tarjimonlari bera olmagan poetik ruhni bera olishi qator tarjimashunoslar tomonidan e'tirof qilingan. Hatto aytish mumkinki, J.Kamol tarjimalari inglizcha matn asosida amalga oshirilganiga qaramasdan badiiy ruh va shekspirona pafosni aks ettirishi jihatidan eski tarjimalarga yo'l bo'shatadi. 2012-yili Vahob Ro'zmatov tarjimasida byuuk yunon rapsodi, jahonshumul shoir Gomerning "Odisseya" dostoni tarjima qilindi. Nemis olimi Ekkermannning "Gyote bilan suhbatlar" marifiy-badiiy essesi Yanglish Egamova tomonidan o'zbekchalashtirildi. Shu tariqa yuzlab jahon adabyotiga mansub asarlar tarjimasi dunyoga keldi.

Xususan, Xuan Rulfonying "Pedro Paramo" qissa (Jahon adabiyoti jurnali 1988, 2-son)si o'zbek kitobxoni uchun o'ziga xos yangilik bo'ldi. Zotan, lotin Amerikasi adabiyotining milliy tabiati mashhur Gabriel Garsia Markesning "Tanholikning yuz yili" (1995, I.G'afurov tarjimasi), "Buzrukning kuzi" (2008, I.G'afurov tarjimasi), "Atirgulning tikoni" (2010, Ahmad Otaboyev) asarlari tarjimasidayoq o'zbek o'quvchilarini hayratga solgan edi. Yevropa modern adabiyotining otasi hisoblanadigan Jeyms Joysning "Uliss" asari dunyoning ko'p tillariga o'girilgan bo'lsa ham, uning muhlislari kun-kundan ko'payib bormoqda. Asrdagi abstrakt mohiyatga qiziqish dunyo o'quvchilari xayolini hali-hamon band etib keladi. Asarning o'ta murakkab kodlashtirilgan uslubi uning tarjimasi masalasini bir muncha murakkablashtiradi. O'zbek tarjimashunosligining yana bir yutug'i sifatida ayni asarning Ibrohim G'afurov tomonidan qilingan tarjimasini ko'rsatish mumkin. Semyuel Bekketning "Godoni kutish" asari ham "absurd adabiyot", "absurd teatri" namunasi o'laroq o'zbek ziyolilari, olimlari, talabalari va oddiy o'quvchilarini ham qiziqtirib kelar, ammo uning o'zbekcha tarjimasi mavjud emas edi. Shu asar shoir va folklorshunos olim Jabbor Eshonqul (Jahon adabiyoti jurnali 2014, 7-son) tomonidan tarjima etildi va h.k.

Ayni paytda bolgar yozuvchisi Bogomil Raynov qalamiga mansub "Mening noma'lum sohibjamolim" qissasi iste'odli adib-tarjimonlar Z.A'lam, U. Otaxonovlar tarjimasida (Toshkent: Ziyo-nashr, 2020), Dino Butssatining

“Kattalashtirilgan surat” qissasi Nazira Jo‘rayeva, “Eynshteyn va iblisvachcha” hikoyasi U.Jo‘raqulov (Toshkent: Ziyonashr, 2020), Krishan Chandarning “Sehrli daraxt” romani Qodir Mirmuhamedov, “Bir qizga ming oshiq” asari O.Sharafiddinov, Sharlotte Brontening “Jeyn Eyr” romanining to‘rttala kitobi ham Shahlo Ahmedova (Toshkent: Ziyonashr, 2020), Stiven Kingning “Shoushenkdan qochish” romani Saidjalol Saidmurodov, Teodor Drayzerning “Finansist”, “Titan” romanlari Amir Fayzulla, A.Dyumaning “Askani” romani Qodir Mirmuhamedov, F.Kafkaning “Jarayon” romani V.Fayzulla, Jorj Sandning “Indiana” romani Yu.Xushvaqto‘v tomonidan tarjima etilib, nashr qilinishi o‘zbek xalqi madaniy hayoti uchun katta yangilik bo‘ldi. Bunda tarajimonlar mahorati, xalq tili qoidalarining izchil amal qilishi, jonli tilga yaqinlik xususiyatlari badiiy tarjimalar yetakchi xususiyatlarini tashkil etadi. Asarlardagi ijtimoiy hayot, iqtisodiy muammolar girdobida qolgan inson, pragmatiklashgan oshiq va ma’shuqa, murakkab vaziyatlar yechimini izlayotgan yangi davr mutafakkiri, botini tarafga safarga chiqqan XX asar ayoli obrazlari jahon adabiyotining bugungi shamoyili haqida muayyan tasavvur beradi.

Yana shunday asarlar tarjima qilindiki, ularda iqtisodiy muammolar girdobidagi odam, jamiyatda o‘z o‘rnini topolmagan, qashshoqlashgan, ruhiy tushkunlikka uchragan odam obrazi asar markazini egallagan. Irving Shouning uch kitobdan iborat “Boy va kambag‘al” (A.Fayzulla tarj.) “Tungi darbon” (Nizom Komilov tarj.) asarlari, Lesli Uollerning ikki kitobdan tashkil topgan “Bankir” (Fayzi Shohismoil), S.Moemning “Oy va sariq chaqa”, “Notanish odam” (R.Inog‘omov tarj.), Paulo Koeloning “Beshinchi tog‘” (O.Sharafiddinov tarj.), Sevela Efraymning “To‘xtatib samalyotni, tushib qolaman” (O.Sharafiddinov tarj.) shunday asarlar sirasiga kiradi.

Shu bilan birga A.Xeylining “Oqshom xabarlar” asari J.Eshonqul, R.Bredberining “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” romani Mirza Anvar, Danilla Stilning “Sayohat” romani G.Muhammadjon, F.S.Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi” romani N.Jo‘rayeva, Sheldon Sidnining “Taqdir tegirmoni” romani B.Zokir, Jo‘rji Zaydonning “Xorun ar-Rashidning singlisi” romani M.Zokirov, Grin Lourensning

“Ko‘hna afrikaning so‘nggi asirlari” asari Azizxon, Brink Andrening “Shamoldagi lahza” asari R.Inag‘omov, Silva Migel Oteroning “Yig‘lagim kelsa ham yig‘lamayman” qissasi Olim Otaxon, Aleksandro Borikkoning “Ipak” romani F.Shohismoil, Rua Gabriyelning “Umr – oqar daryo” asari S.Doniyorova, Yusuf as-Siboiiy qalamiga oid “Munofiqlar yurti” romani E.Talabov, Erix Mariya Remark ijodi namunasi “Uch og‘ayni” N.Komilov, Karsari Villiinng “Mangu iztirob” asari M.Omonlar tomonidan o‘zbekchalashtirildi. Bunda mualliflarning yozuvchi individual uslubini tarjimada ham saqlab qolish, adekvat uslubga intilish kabi fazilatlarini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir.

Dunyo xalqlari adabiy jarayonida kuzatilgani kabi zamonaviy o‘zbek o‘quvchisida ham fantastika, sarguzasht, betsellerlarga qiziqishning kuchaygani kuzatiladi. Ella Grifestning “Noma’lum sherik” romani (G.Muhammad tarj.), Jorj Sandning “Indiana” romani (Yu.Xushvaqtovtarj.), Prevo Abbatning “Yunon qizining qismati” romani (J.Abdullaxonov tarj.), Yannis Marisning “Nafaqadagi xususiy izquvar” romani (Q.Mirmuhamedov tarj.), Foks Syuzenning “Samoviy ahdi paymon” (G.Muhammadyorova tarj.) asarlari mana shunday asarlar sirasiga kiradi. 2013-yilda “Istiqlol” nashriyoti “Klassik koreys she’riyati antologiyasi”, “Klassik koreys nasri antologiyasi” nomli kitoblarni nashr etdi. Har ikkala asar miloddan oldingi asrlardan XX asrgacha bo‘lgan koreys xalq folklori va yozma lirikasi, nasri namunalarini qamrab oladi.

XULOSA

1. O‘zbek tarjimachiligi va tarjimashunosligi tarixi uzoq o‘tmish chegaralaridan start olgan. Dunyo tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan millat, ko‘plab saltanatlar tuzgan davlatchilik sohibi o‘laroq o‘zbek xalqi tarixida boshqa millatlar falsafasi, ilm-fani va adabiyotidan qilingan tarjimalar muhim ijtimoiy-madaniy mohiyat kasb etgan.

2. O‘zbek tarjimachiligi tarixining zamonaviylashuvi, zamonaviy tarjimachilik professionalizmi bosqichini egallashi XX asr 10-30-yillarida ijtimoiy-madaniy faoliyat olib borgan jadidchilik harakatiga borib bog‘lanadi. Jadidlar ham xuddi o‘zlarining buyuk ajdodlari kabi dunyo va oxirat saodatini o‘zga madaniyat,

ma'naviyat va adabiyot bilan tanishish, xalqni ham tanishtirishda deb bilganlar. Shu sabab Mahmudxo'ja Behbudiyan tortib Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriylargacha tarjima ishlari bilan bevosita shug'ullanganlar.

4. 30-40-yillarda o'zbek tarjimachiligi professional darajaga ko'tarilgan. Nafaqat tarjima amaliyotida, balki tarjimashunoslik ilmi, tarjima nazariyasida ham aniq mezonlar ilgari surilgan. Sanjar Siddiqning qator tadqiqotlari va ularda aks etgan xulosalar o'zbek professional tarjimashunosligi haqida to'la tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

5. Tarjima amaliyoti va tarjimashunoslikning umumnazariy muammolari, ilmiy yechimlari 60-yillardan e'tiboran V.Zohidov, G'.Karimov, S.Shermuhamedov, Sh.Shomuhamedov, G'.Salomov, J.Sharipov, M.Rasuliy, E.Aznaurova, D.G'ulomova, O.Nahanov, N.Komilov, T.Jo'rayev, M.Qo'shmoqov, S.Salomova, Z.Umarbekova, A.Abduazizov, R.Orzibekov, A.Umarov, N.Vladimirova, M.Rasuliy, M.Qo'shmoqov, T.Qahhorov, G.G'afurova, N.Muhammadiyev, R.Fayzullayeva, E.Muhammedov, O.Ne'matov, R.Karimov, A.Iminov, Q.Musayev, M.Sulaymonov, S.Ochilov, N.Otajonov, V.Rahmonov, J.Kamol, M.Muhiddinov, M.Hazratqulov, B.Do'stqorayev, P.Mirzaahmedova, Ya.Egamova, S.Ochilov, S.Meliyev, M.Sharafiddinova, Z.Isomiddinov, Sh.Otaboyev, M.Xolbekov kabi tarjimashunoslar tomonidan aniq ilmiy tizimga solingan.

6. Agar sovet tuzumi davrida o'zbek tarjimachiligi faoliyati kompartiya va hukumat tomonidan belgilab berilgan bo'lsa, mustaqillik davriga kelib, millatning badiiy-estetik ehtiyojiga ko'ra belgilanadigan bo'ldi. Shunga ko'ra, bu davr tarjimachiligida turkiy xalqlar adabiyotidan qilingan tarjimalar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu jihat mustaqillik zamonida o'zbek xalqi o'zining asl ildizlari tomon jiddiy tarzda intilganini ko'rsatadi.

7. Rus adabiyoti klassklaridan o'zbek tarjimachiligi ko'pdan buyon, qariyb 150-yildan beri tarjima qilib keladi. Sovet davrida esa bu adabiyot barcha sovet respublikalari uchun etalon vazifasini bajardi. Sovet siyosatining mafkuraviy quroliga aylandi. Shu sabab tarjima asarlari "ro'yxati" hukumat tomonidan tuzib

berildi. Sovet hukumati barbod bo'lgach bu jarayon erkinlashdi. Mustaqillikdan keyingi o'zbek tarjimachiligi rus adabiyotining A.Pushkin, M.Lermontov, L.Tolstoy, N.Gogol, F.Dostoyevskiy, M.Sholoxov kabi "katta adabiyot" namoyandalari asarlarini izchil tarjima qilish bosqichiga o'tdi.

8. Mustaqillik davri o'zbek tarjimalari Sharq va G'arbning barcha millatlari adabiyoti namunalarini qamrab olishi, o'zbek tiliga tarjima qilayotgani bilan keng ko'lamli, umumadabiy, umummadaniy harakatning ajralmas bir qismi o'laroq namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aznaurova E. Tarjima san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1973.
2. Aytmatov Ch. Saylanma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1989.
3. Valiev S. Toshkent: Yer yuzi jurnali, 1926.
4. Kubikov A. Toshkent: "Ma'orif va o'qitg'uchi" jurnali, 1926.
5. Mualliflar jamoasi. Tarjima san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1973.
6. Muqanov S. Asarlar. – Toshkent: O'zbekiston madaniyati gazetasi, 1960.
7. Nahanov O. Sanjar Siddiq haqida. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1973.
8. Olimjon H. Tarjima haqida. – Toshkent: Alanga jurnali, 1936.
9. Orzibekov R., Abdurahmonov A. Tarjimashunoslik muammolari. Tarjima san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1973.
10. Salomov G'. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. Tarjima san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1973.
11. Suobiy M. Tilanchi. Bo'sag'a. – Toshkent: Ma'orif va o'qitg'uchi" jurnali, 1925.
12. Siddiq S. Tarjima sirlari. – Toshkent: O'zSSR Davlat nashriyoti, 1936.
13. Siddiq S. Adabiy tarjima haqida. – Toshkent: Qizil O'zbekiston gazetasi, 1935.
14. Siddiq S. Adabiy tarjima asoslari. – Toshkent: Kitob va inqilob jurnali, 1932.
15. Siddiq S. Sahnada til. – Toshkent: Qizil O'zbekiston gazetasi, 1935.
16. Sharipov Y. Xorij tillaridan tarjima amaliyoti. – Toshkent: Alanga" jurnali, 1929.
17. Shekspir V. Hamlet. Daniya shaxzodasi. Rus tilidan Maqsud Shayxzoda. – TOSHKENT: O'znashr, 1948.

18. Shekspir V. Pyesalar. – Toshkent: O‘znashr, 1960.
19. Qahhor A. Tarjima san’ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1973.
20. Qo‘shmoqov M. Tarjima san’ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1978.
21. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2002.
22. G‘ozi Yu. Maymun va ko‘zoynak. Kirilovdan tarjima. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1921.
23. Köprülü M.F. Edebiyat Araştırmaları. Türk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara – 1986.
24. Alptekin Ali Berat. Halk Hikayelerinin Motif Yapısı. Ankara – 1997. – S.42.
25. Kasap I. Halk Hikayeleri Üzerine. Hece // Türk Öykücülüğü Özel Sayısı. Sayı:4. 2000. –S.127.
26. Sami N. Özlerdim “Türk Öykü Kitapları Zaman Dizimi”, Türk Dili, Türk Öykücülüğü Özel Sayısı, 1975. – S.286.

REFERENCE

1. Aznaurova E. (1973). undefined undefined.
2. Aitmatov Ch. (1989). The chosen one. Tashkent: Sharq Publishing House.
3. Valiev S. (1926) Tashkent: Journal of the Earth.
4. Kubikov A. (1926) Tashkent: “Ma’rifat va o‘qituvchi” magazine.
5. Authors’ collective (1973). The art of translation. Tashkent: Gafur Gulyam Publishing House.
6. Mukanov S. (1960). Works. Tashkent: Uzbekistan Culture Newspaper.
7. Nahanov O. (1973). About Sanjar Siddiq, Tashkent: Gafur Gulyam Publishing House.
8. Olimjon H. (1936). About translation. Tashkent: Alanga jurnali.
9. Orzibekov R., Abdurakhmonov A. (1973). Problems of translation studies. The art of translation. Tashkent: Gafur Gulyam Publishing House.
10. Salomov G. (1973). Theoretical issues of translation studies. undefined Tashkent: Gafur Gulyam Publishing House

11. Suobiy M. (1925). Beggar. Threshold, Tashkent: “Maorif va o‘qituvchi” magazine.
12. Siddiq S. (1936). Secrets of Translation, Tashkent: State Publishing House of the UzSSR.
13. Siddiq S. (1935). About literary translation. Tashkent: Red Uzbekistan newspaper.
14. Siddik S. (1932). Fundamentals of literary translation. Tashkent: Book and Revolution Journal.
15. Siddik S. (1935). Language on stage. Tashkent: Red Uzbekistan newspaper.
16. Sharipov Y. (1929). Translation practice from foreign languages. Tashkent: Alanga magazine.
17. Shakespeare, W. (1948) Hamlet. Prince of Denmark. Maqsud Shaykhzoda from Russian TASHKENT: Uznashr.
18. Shakespeare, W. (1960). Plays. Tashkent: Uznashr.
19. Qahhor A. (1973). undefined Tashkent: Gafur Gulyam Publishing House.
20. Kushmakov M. (1978). The Art of Translation. Tashkent: Gafur Gulyam Publishing House.
21. Kasimov B. (2002). Milliy Uyғonish, Tashkent: Ma’naviyat Publishing House.
22. Gozi Yu. (1921). Monkey and glasses. Translated from Kirilov Tashkent: Uzdavnashr.
23. Köprülü M.F. (1986). Literary Research. Türk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara.
24. Alptekin Ali Berat. (1997). The Motif of Folk Stories. Ankara. P.42.
25. Kasap I. (2000). On Folk Stories. Hece // Türk Öykücülüğü Özel Sayısı. Numbers:4. P. 127.
26. Sami N. (1975). Ozlerdim “Türk Öykü Kitapları Zaman Dizimi”, Türk Dili, Türk Öykücülüğü Özel Sayısı, P. 286.